

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI.

Mamadiyorov Norbek Quvandiқovich

Zarmed universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi (PhD)

Donoboyev Lochin Bahodir o‘g‘li

Zarmed universiteti “Sport faoliyati” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Maqolada Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash muammolari hamda ularning kasbiy kompetentligi sifatini yaxshilash nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Mualliflar zamonaviy Jismoniy tarbiya va sport ta’limining rivojlanishi tendensiyasi uning insonparvarlik yo‘nalishiga diqqat e’tiborning kuchayganligini, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarni tayyorlash tizimida psixologik va pedagogik tayyorgarlikning ahamiyatlilikini asoslab bergan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya va sport ta’limi, jismoniy madaniyat va sport mutaxassislari, psixologik va pedagogik tayyorgarlik, kasbiy kompetentlik.

Аннотация. В статье проанализированы проблемы подготовки специалистов по физической культуре и спорту с точки зрения повышения качества их профессиональной компетентности. Авторы обосновали, что тенденция развития современного физкультурно-спортивного образования обусловлена повышенным вниманием к его гуманистической направленности, значимостью психолого-педагогической подготовки в системе подготовки специалистов физической культуры и спорта.

Ключевые слова: физкультурно-спортивного образования, специалистов физической культуры и спорта, психолого-педагогической подготовки, профессиональной компетентности.

Annotation. The article analyzes the problems of training specialists in Physical Education and sports, and in terms of improving the quality of their professional competence. The authors argued that the trend for the development of modern physical education and sports education has increased attention to its humanitarian direction, the importance of psychological and pedagogical training in the system of training physical education and sports specialists.

Key words: physical education and sports education, specialists in Physical

Culture and sports, psychological and pedagogical training, professional competence.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida Respublikamizda oliy ta’lim tizimi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishi sababli o‘zining faoliyatini qayta qurish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Yangi sharoitlarda istiqbolli mutaxassislarni tayyorlash vazifasi yuzaga keldi. Bu esa oliy o‘quv yurtlari faoliyatini tubdan o‘zgartirish, yangi ta’lim dasturlari va texnologiyalarini yaratish, o‘quv-metodik va ilmiy ishlarni takomillashtirishga turtki bo‘ldi.

L.P.Matveyev, V.I.Stolyarov, E.V.Koneva, O.L.Shabalina va boshqalarning oliy jismoniy tarbiya va pedagogik ta’limining muammolariga bag‘ishlab boshlagan ilmiy tadqiqotlarida quyidagi kamchiliklar aniqlangan¹:

-jismoniy madaniyat nazariyasi asosan harakat funksiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, amalda esa o‘quvchilarning shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilmagan;

-o‘quv mashg‘ulotlari sport amaliyotining mashq qilish mashg‘ulotlariga o‘xshashlik asosida o‘tkaziladi;

-shaxsning qobiliyatlarini takomillashtirish va uning o‘zini-o‘zi takomillashtirish, o‘zini-o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan intilishi maqsadli yo‘naltirilmagan;

-jismoniy tarbiya va sport doirasida pedagogika, amaliyotni tizimlashtiruvchi nazariya deb emas, balki tarbiya bo‘yicha amaliy faoliyat sohasi deb hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya bo‘yicha keng ixtisoslikka ega bo‘lgan mutaxassislar modeli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5924-son Farmonida o‘z ifodasini topdi. Farmonga muvofiq oliy ta’lim muassasalarining jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining bitiruvchilariga jismoniy tarbiya o‘qituvchisi va ixtisoslashgan sport turi bo‘yicha trener kvalifikatsiyasini berish ko‘rsatildi.² Boshqalar (A. Morozov, N. Talizina, M. Frolova) o‘qituvchi, muallim, trener va boshqa tor ixtisoslikka yo‘naltirilgan modelni tadqiq qilmoqdalar.

Oxirgi yillarda inson ta’limining tizimida jismoniy madaniyatning tutgan o‘rni va ahamiyatini o‘rganishga qiziqish oshdi, ilgari shakllangan yondashuvlar qaytadan ko‘rib chiqilmoqda. Hozir ko‘proq jismoniy madaniyatning tarbiyaviy potensialini amalga oshirish masalalari va uning insonparvarlik mohiyati odamlarning diqqatini

o‘ziga jalb qilmoqda hamda jismoniy tarbiya sohasi kadrlarining tayyorgarligiga yangi yondashuvlarning zarurligini ifodalovchi fikrlar yuzaga keldi. Natijada jismoniy madaniyat va sport mutaxassislari tayyorgarligini takomillashtirish yo‘nalishida L.Matveev, V.Kargopolov, A.Deminskiy, V.Kovalskiy, va boshqalar o‘zlarining ilmiy ishlarini bag‘ishladilar.

Jismoniy madaniyat ta’limi ma’lum ijtimoiy buyurtmani bajara turib zamonaviy jamiyatning rivojlanishida o‘zining maqsadini qaytadan ko‘rib chiqishi va mazmunini o‘zgartirishga majbur. Ikki tendensiyaning to‘qnashuvi ro‘y bermoqda. Bir tomondan, jismoniy madaniyat ta’limini qayta qurish zarurligi tan olinmoqda, jamiyat talablariga mos ravishda tajribalar orttirilmoqda, yangi didaktik yondashuvlar shakllanmoqda. Boshqa tomondan esa, tizim shakllangan nazariyani va odatdagi metodikani saqlab qolishga, tashkiliy shakllarni va orttirilgan tajribani mutlaqlashtirishga intilmoqda. Jismoniy madaniyat ta’limini takomillashtirish muammolari bo‘yicha e’lon qilingan ilmiy adabiyotlar tahlili hozirgi shakllangan tendensiya doirasida faqat chegaralangan tor (lokal) yangiliklar kiritishga intilishlar mavjudligi to‘g‘risida dalolat beradi. Biroq hosil bo‘lgan ziddiyatlarni tub o‘zgarishlarsiz hal qilib bo‘lmaydi.

Jamiyat ongining o‘zgarishi natijasida o‘zini- o‘zi rivojlantirish, o‘ziga o‘zi tarbiya berish, mustaqil o‘qib bilim orttirish, bilim, ko‘nikma, malakalarni yetkazishning birinchi darajadagi ahamiyatligida jismoniy madaniyat ta’limida yangi qadriyatlar paydo bo‘ldi. Shakllanayotgan jismoniy madaniyatning yangi konsepsiyasi oliy ta’lim tizimida jismoniy madaniyat va sport sohasi mutaxassislari tayyorgarligida ham xuddi shunday munosib o‘zgarishlar bo‘lishi zarurligini talab qiladi. Bu davlat ta’lim standarti mazmunida, yangi o‘quv rejalar va dasturlarda hamda kadrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish yo‘llarini izlashda o‘z ifodasini topgan.

Bugun jismoniy madaniyat nafaqat ijtimoiy turmush (hayot) voqeasi va inson faoliyati sohasi sifatida, balki uning individda rivojlanish natijasi deb qaralmoqda. Bu esa o‘zida shaxsning fundamental qadriyatlarini mujassamlashtiradi, modomiki, u organizm faoliyatining biologik potensialini ta’minlaydi, hamohang rivojlanishga zamin yaratadi, ijtimoiy faollikning namoyon bo‘lishiga ko‘maklashadi, shaxsning talant va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida xizmat qiladi.³

Bunday yondashuv jismoniy madaniyatni shaxsning ma’lum saviyadagi jismoniy rivojlanishi va o‘qimishlilikini xarakterlovchi turli faoliyat turlari va shakllarida bu darajaga erishish usullarini anglaganligi (kasbiy, ijtimoiy, oilaviy,

jismoniy madaniyat-sport va boshqalar), sifatli, tizimli, dinamik ta’lim deb hisoblashga imkon yaratadi.

Jismoniy tarbiya va sportni boshqaruv tizimi va sport ta’limi muassasalari rahbarlari faoliyatining ochiqlik va shaffoflik darajasi yetarli emasligi, jamoatchilik nazorati yo‘lga qo‘yilmaganligi, ayrim rahbarlarda zarur mas’uliyat va tashabbuskorlikning yo‘qligi qo‘yilgan vazifalar hamda maqsadli ko‘rsatkichlar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Hozir oliy ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan paradigmaga o‘tishi bilim va ko‘nikma larni emas, balki insonning o‘zini mutloq qadriyat sifatida qabul qilmoqda. Ta’lim tizimi ilgari o‘ziga tegishli bo‘lgan: asli yashiringan g‘oya ustunligi, quruq nazariyabozlik, o‘rta hol o‘quvchiga mo‘ljallanganlik va shunga o‘xshash nuqsonlardan tozalanmoqda; shuning barobarida ta’lim makonida subyekt-subyekt munosabatlarining shakllanishi va o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari; shaxsning ta’lim, ma’naviy, madaniy ehtiyojlarining qondirilishi, ta’lim mazmunini erkin tanlashi qondirilmoqda. Bunday yondashuvda ta’lim maqsadi va mazmuni insonning shaxsiy jihatlariga ko‘chiriladi, aqidalarga ko‘rko‘rona ishonish, so‘zsiz

bo‘ysunishga asoslangan illatlardan xalos qiladi.

Jismoniy madaniyat va sport mutaxassislari tayyorgarligini insonparvarlashtirish bo‘lg‘usi mutaxassisning shaxsini intellektual, estetik va axloqiy rivojlantirishga, uning gumanitar bilim darajasini va umumiy madaniyati saviyasini oshirishga, dunyoqarashlari kengligini shakllantirishga mo‘ljallangan. Bu tibbiy-biologik yo‘nalishdan pedagogik, psixologik, ijtimoiy va integrativ yo‘nalishga o‘tish bilan bog‘liqligi hamda ularning o‘zaro aloqadorligi va bir-biriga bog‘langanligi jismoniy madaniyat pedagogik ta’limi rivojlanishi tendensiyasining mantiqiy davomi hisoblanadi.

Jismoniy madaniyat va sport mutaxassislari tayyorgarligining nazariy tahlili ularning tayyorgarligini quyidagi kompleks metodologik yondashuvlar asosida qurish kerakligini ta’kidlashga imkon yaratadi, ular: shaxsga yo‘naltirilganlik, faoliyatlilik, ma’rifatparvarlik, aksiologik, texnologik, shaxsiy ijodkorlik, etnopedagogik, antropologik, integrativ, kompetentlik, informatik, akmeologik, reflektiv, vositalilik va boshqalardan iborat.

O‘zida ma’lum qadriyatlar va munosabatlarni mujassamlashtirgan jismoniy madaniyatga umumiy madaniyatning bir qismi sifatida yondashganda masala oydinlashadi, ya’ni bo‘lg‘usi mutaxassis kelajakdagi faoliyatida jismoniy madaniyat

potensialini amalga oshirish uchun nafaqat jismoniy tarbiya metodikasini, balki kasbiy-pedagogik kompetentlikka ham ega bo‘lishi kerak. Bu unga real imkoniyatlarni hisobga olib, konkret sharoitlarga moslashib, mustaqil o‘quv-tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish va amalga oshirish hamda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni prognozlashtirishga imkon tug‘diradi. Ta’lim va tarbiyaning keng ko‘lamli vazifalari asosida kasbiy faoliyatini tashkillashtirish, konkret dalillar, voqealar, hodisalardan ta’lim jarayonining umumiy qonuniyatlari namoyon bo‘lishini ko‘ra bilish uchun jismoniy madaniyat va sport sohasi mutaxassislariga taraqqiy etgan pedagogik tafakkur zarur. Har tomonlama rivojlangan zamonaviy odam uchun intellektual, axloqiy, estetik, ma’naviy jihatlar qanchalik muhim bo‘lsa, shunchalik jismoniy madaniyat ham ahamiyatli hisoblanadi.

Shunday qilib, jismoniy madaniyat va sport sohasi mutaxassislari kasbiy tayyorgarligi mavjud amaliyotini tahlil qilish va umumlashtirish asosida ularda jiddiy kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Ulardan asosiylari: jismoniy madaniyat, sport va psixologik-pedagogik tayyorgarligi hamda talabalar tomonidan pedagogik nazariyani o‘rganish va o‘quv-tarbiyaviy faoliyat amaliyotini o‘zlashtirish orasidagi disparitetlik (nomuvofiqlik).

O‘qitishning noan’anaviy shakllarini qo‘llash texnologiyalari, bizning fikrimizcha, agar ularni pedagogik jarayonga tatbiq qilish kompleksli bo‘lsa va pedagogik amaliyot dav rida mustahkamlanishi nazarda tutilsa, natija beradi deb o‘ylaymiz. Bunday vaziyatda talabalarda o‘zining kasbiy kompetentligi saviyasini oshirishga ijobiy motiv shakllanadi. O‘z navbatida mutaxassislarning tayyorgarligi sifatini yaxshilash jismoniy madaniyatning ijtimoiy mavqeining o‘shishiga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4877-sonli Qarori
4. Abdullayev A., Xonkeldiyev SH. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. O‘quv qo‘llanma Toshkent., O‘zDJTI, 2005 yil – 300 b.



5. Abdumalikov R. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat va sport tarixi. O‘quv qo‘llanma Toshkent 1993 y.
6. David C. Watt Sports management and administration © 1998 David C. Watt
7. F.A. Kerimov. Sportda ilmiy tadqiqotlar. Darslik «Ilmiy texnika axboroti – press nashriyoti» –T. 2021.380 b.
8. F.A.Kerimov. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. T. «Zarqalam» 2004 yil.
9. F.Kerimov, M.Umarov. Sportda prognozlashtirish va modellashtirish. T. 2005 y.
10. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O‘quv qo‘llanma, Toshkent., O‘z DJTI, 2005 y – 171 b.
11. J.E.Eshnazarov. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2008 yil, 288-289-betlar.
12. Виленский М.Я. Ценностное сознание в структуре профессионально-личностного развития студентов// М.Я. Виленский // Ценностные приоритеты общего и профессионального образования: мат-лы Межд. науч.-пр. конф. – Ч.1 – М, 2000. – С. 90-93.
13. Черняев В.В. Анализ принципов гуманитаризации физического воспитания студентов // В.В.Черняев // Научные труды МПГУ. Серия: Психолого-педагогические науки. – М., 2001, – С. 130-142.
14. Шабалина О.Л. Общепедагогическая подготовка учителя физической культуры в системе высшего профессионального образования: дис. ... доктора пед. наук: 13.00.08 // Шабалина Ольга Леонидовна. – М., 2003. – С.320.